



## TIL SISTEMASI VA STRUKTURASI TERMIN- TUSHUNCHALARIGA BIR NAZAR

J. Abdullayev, GulDU dotsenti,

Z.To'ychiyeva, GulDU o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15469755>

### ARTICLE INFO

Received: 5<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 10<sup>th</sup> May 2025

Published: 20<sup>th</sup> May 2025

### KEYWORDS

*sistema, struktura, til, til sistemasi, til strukturasi, til qurilishi, til tuzilmasi, dual funksional sistema, atalmish, ifodalanmish, denotat, signifikat, referent, signifikativ denotat.*

### ABSTRACT

*Tilshunoslikda, xususan, nazariy tilshunoslikda til sistemasi, til strukturasi degan termin-tushunchalar ko'p ishlatiladi. Bu terminlarning atalmishi (denotati, referenti) ularning nomemasidan bevosita kelib chiqmaydi, darhol tasavvurda paydo bo'lmaydi. Ularning denotati bu xildagi referentlardan emas. Ushbu maqolada ana shu va ularga yondosh, ular o'rnida foydalaniladigan til qurilishi termin-tushunchalari haqida fikr yuritilgan. U bu boradagi ayrim noaniqliklarga barham berishda, ba'zi muammolarni ijobiy hal qilishda yordam berishga qaratilgan*

Oddiy so'z bilan "Til" deb atalgan ushbu sistema aslida eng murakkab hodisalar sirasiga kirishi u haqda fikr yuritilgan ishlardan ma'lum. Shu sabab uni tushunish ham, tushuntirish ham qiyin kechadi, muammolardan, munozarali, hatto ziddiyatli holatlardan holi bo'lmaydi. Bu til va tilga oid birliklar, hodisalar, qonuniyatlarga nisbatan ishlatilayotgan terminlar, jumladan, til sistemasi va strukturasi terminlarining qo'llanishi, ular orqali ifodalana-yotgan ma'nolar, ularning talqin-ta'riflarida ham ko'zga tashlanadi. Biz ushbu maqolamizda tilni tushunishimizda muhim bo'lgan ana shu dolzarb masala haqida baholi qudrat fikr yuritdik. O'ylaymizki, u bu boradagi ayrim noaniqliklarga barham berishda, ba'zi muammolarni ijobiy hal qilishda yordam beradi.

Tilshunoslikda, xususan, nazariy tilshunoslikda *til sistemasi, til qurilishi, til strukturasi* degan termin-tushunchalar ko'p ishlatiladi. Ulardan dastlabki ikkitasining atalmishi (denotati, referenti) ifodalardan bevosita kelib chiqmaydi, darhol tasavvurda paydo bo'lmaydi. Ularning denotati bu xildagi referentlardan emas. Ular kuzatish, eshitish, o'qish, uqish, tushuntirish, tushunish, izohlash, ta'rif-tavsiflar natijasida asta-sekinlik bilan o'zligini namoyon qila, anglana boradigan abstrakt tushunchalar turiga kiradi. Bu ishni amalga oshirish mumkin, bu katta muammo emas, muammo asta-sekinlik bilan ham tiklab bo'lmaydigan *tilning qurilishi* deb atalgan noma'lum, noayon, majhul narsada. Zero, til qurilgan bo'lsa, uning qurilishi nima bilan belgilanadi? Til qurilishi deganda nima nazarda tutiladi? Til qurilishi nima? degan savollar oldida har qanday tilshunos ham taraddudlanib qoladi - aniq javob berishga qiynaladi, aniq javob berish mumkin ham emas. Chunki bu yerda tilga xos bo'lgan aniq bir holat, mavjud majmua qayd etilayotgani yo'q, tilda bunday qurilish holati, muayyan qurilmalik xususiyati mavjud emas, *tilning qurilishi* amalda tasvirlab bo'lmaydigan, xayolga keltirish mumkin bo'lmagan yo'q narsadir.

*Til sistemasi* haqida bunday deb bo'lmaydi, albatta. U, *til qurilishidek* yo'q narsa, ilmiy to'qima, noayon mavhumlik emas, haqiqatan, bor, mavjud narsa, Lekin shunday bo'lsa-da, u ham,

baribir, biz kutgan darajadagi aniqlikka ega emas, u atab kelayotgan denotat darhol paydo bo'ladigan, aytilgan zahoti namoyon bo'ladigan narsa-hodisalar sirasiga kirmaydi. Uning denotati, yuqorida ta'kidlanganidek, asta –sekinlik bilan, tadrijiy ravishda paydo bo'ladigan abstrakt tuzilmadir. Shu ma'noda, shu shart bilan uni signifikativ denotat deyish mumkin.

Ammo shunga qaramasdan har ikki ifoda nazariyotchi tilshunoslar tomonidan faol ishlatilayotgani kuzatiladi. Bu holat ularga ilmiy ehtiyoj borligini ko'rsatadi, albatta. Unda muammo nimada? Nazarimizda, bu yerdagi muammo ular-ning, ba'zan til strukturasi ham, ma'nodoshlar sifatida, bir ob'ektning bir xil xossasini ifodalash uchun ishlatilishidir. Vaholanki, yuqoridagi asosga ko'ra, *til qurilishini* bu qatarga kiritib bo'lmaydi.

Shu ma'noda biz mazkur aslida o'zi yo'q hodisani atashga xizmat qilayotgan, *til sistemasi* va *til strukturasi* termin-tushunchalarining ma'nodoshi, vazifadoshi sifatida ishlatilayotgan *til qurilishi* degan ifodaga ilmiy ehtiyoj ham, zarurat ham yo'q, undan foydalanmaslik kerak, deb o'ylaymiz.

Biroq, muammo shu bilan uzil-kesil hal bo'lmaydi. Gap shundaki, *til sistemasi* va *strukturasi* termin-tushunchalari ham hali kutilgan darajadagi ilmiy aniqlikka ega emas, qat'iy terminologik ma'no kasb etgani yo'q. *Til sistemasi* tilning lison va nutqning dialektik birligidan iborat butunlik ma'no-mundariyasi bilan til ana shunday dual funksional sistema sifatida talqin qilingan o'rinda, uning immanent realligi va ob'ektiv mavjud holati haqida gap ketganda ishlatilsa, mohiyatga muvofiq ish tutilgan bo'ladi. *Til strukturasi* esa tilning ichki tuzilishi va bu tuzilishning o'ziga xosligi - ko'psathiligi ma'nosini anglatadi. Uning mohiyati shu bilan belgilanadi. Tilning tuzilishi birikmasini "til tuzilishi" yoki "til tuzilmasi" tarzida terminologik tus berib ishlatish ham mumkin. Ammo bu o'rinda "til strukturasi" ularga qaraganda afzallikka ega. Ma'nodosh sifatida ishlatish zarurati tug'ilganda "til tuzilmasi" dan foydalanish ma'qul ko'rinadi. "Struktura" da "sistema" ga mutanosiblik, rangdoshlik jihatdan ham "tuzilish" yoki "tuzilma" ga nisbatan ustunlik bor. Chunki "sistema" ham, "struktura" ham bir xil uslubiy bo'yoq – xalqaro terminlik bo'yog'iga ega. Bir xil bo'yoqlilik, bir xil yasaluvchanlik terminologiyada muhim o'rin tutadi. "Struktura" terminining ma'nosiga kelganda, uning ko'pchilikka tushunarli ekanligini ta'kidlash joiz. Bunga "struktura" so'zining boshqa fan tarmoqlarida ham termin sifatida faol ishlatilayotganligi ijobiy ta'sir qilgani aniq. Ammo tushunish, tushunarlik boshqa, shu tushunchani aniq va mohiyatga monand qilib ifodalash, qayd etish boshqa masaladir. O'zbek tilshunosligida ayni shu masalada muammolar yo'q emas. Qolaversa, uni boshqa-boshqa tushunadiganlar ham bor. Bu holatda ularning talqinlari ham farqli bo'lishi tabiiy. Xullas, til sistemasi va strukturasi termin-tushunchalarining ham ilmiy ishlov, terminologik aniqlikka muhtoj jihatlari yo'q emas. ( Bu yerda yana bir narsani esdan chiqarmasligimiz kerak. Gap shundaki, tilshunoslik tilshunoslar uchungina emas, shu tilda gaplashuvchi, uni tushunuvchi barcha odamlar uchun hamdir. Binobarin, til haqidagi ilm, fan millati o'zbek bo'lgan va o'z tilini unutmagan barcha tildoshlarimiz uchun ham keragidan ortiq izoh-tafsilotlarsiz tushunarli bo'lishi zarur. Mutaxassislar-gina tushunadigan til ilmining ahamiyati ham, zarurati ham katta bo'lmaydi. Nazarimizda, ayni shuning uchun ommabop tilshunoslik – lingvistik publitsistikamiz deyarli rivojlanmagan, elga tanilgan tilshunos notiqalarimizni sanash uchun barmoqlarimiz ham ortiqchalik qiladi).

Sistem-struktur tilshunoslikning asoschilaridan biri buyuk tilshunos F.de Sossyurning o'z lingvistik ta'limotida til **nimalarning** sistemasi? degan savolni qo'rganligi bejiz emas bo'lib, bizningcha, ayni shu sababli va shuni bilgani uchundir. Sossyur bu hal qiluvchi muhim savolga til **belgilar** sistemasi deb javob beradi.

Nazariy tilshunoslik rivoj topgan Yevropa uchun bu hech bir qiyinchiliksiz tushunarli edi va tushunarlidir, albatta. Ammo o'zbek tinglovchisi uchun yaqin yillargacha bu ham izohtalab edi. Chunki *belgi* o'zbek tilida ko'p ma'noli so'z bo'lib, ayni o'rinda uning qaysi ma'nosi qayd etilayotgani noma'lum, qolaversa, lug'atda **belgi** so'ziga berilgan ma'nolarning birontasi ayni o'ringa to'g'ri kelmaydi, chunki belgining falsafiy izohi "O'TIL" (M.,1980)da, afsuski, qayd etilmagan. Ikkinchidan, **sistema** so'zining o'zi ham polisemantik bo'lib, ayni o'rinda bu

ma'nolarning qaysi biri faollashtirilayotgani aniq emas va uchinchidan, bu uni ishlatayotgan odamning *sistema* deganda nimani tushuna-yotganiga ham bog'liq. Demak, tilni ta'riflovchi-tavsiflovchilarning o'zlariga ham hali ma'lum aniqlik kiritishga ehtiyoj yo'q emasligi bor haqiqatdir.

Aslida ham, til sistemasi va strukturasi (ayniqsa, struktura)ning til-shunoslarimiz tomonidan qayd etilayotgan mazmun-mohiyatini bir xil deyish qiyin. Vaholanki, terminlar uchun bir xillik xos va ular uchun ayni shu narsa juda muhim. Biroq, bu ulardan ham voz kechish kerak, degani emas. Aslo. Bu ular ustida terminologik ishlov berish, aniqlik kiritish, ilmiy izlanishlar olib borish ishlari davom ettirilishi lozimligini bildiradi, xolos.

Albatta, lingvistik belgini yaxshi biladigan o'zbek mutaxassislari uchun bu ifodalarning, shu jumladan, *til – belgilar sistemasi* degan ta'rif-tavsifning ma'nosi tushunarli. Lekin hamma ham yaxshi mutaxassis emas, qolaversa, o'z-o'zidan ma'lumki, uni o'qiydigan odamlarning ko'pchiligi nomutaxassis kishilar bo'lib, ular uchun "***Til-belgilar sistemasi***" degani ham muammoli, qiyinchilik tug'diradi, ancha mashaqqat bilan o'zlashtiriladi. Demak, ifodaga shuni hisobga olib qayta ishlov berish, aniqlashtiruvchi so'zlar kiritish maqsadga muvofiq. Shunga ko'ra uni " Til muayyan ma'no va shaklga ega bo'lgan lingvistik belgilar (birliklar) sistemasi" deb o'zgartirish tilning qanday sistema ekanligini ham "***Til-belgilar sistemasi***" deganga qaraganda, aniqroq ko'rsatadi, deb o'ylaymiz. Bu bilan, har qalay, til belgilarini boshqa belgilardan ma'lum darajada farqlagan, ularga o'ziga xos tavsif bergan bo'lamiz.

***Til sistemasi va til strukturasi*** kelganda shuni **ta'kidlashni istardikki, ular** bir-birini taqozo qiluvchi va bir-biriga mutanosib bo'yoqli atamalar sifatida tilshunoslikda muhim va muqim o'ringa ega. Lekin bu ular sinonim, ma'nodosh degani emas. Haqiqatan, ularning ob'ekti bitta –til, ikkisi ham tilni tavsiflaydi, ammo ular shu bitta obekt bilan bog'liq bir xil hodisa, xossani emas, boshqa-boshqa mohiyatni qayd etadi. Til sistemasi tilni butunlik holatiga nisbatan ishlatiladi, butunlik holatidagi tilni ifodalaydi. Shu ma'noda uning so'zma-so'z izohini til butunligi, butunlik holatidagi til, deb ifodalash mumkin. Til strukturasi nisbatan bunday deb bo'lmaydi. Aslida, til sistemasining strukturasi deyish aniqroq. Zero, ular dialektik birlikda yashaydi, bir-birini taqozo qiladi. Har qanday sistema albatta strukturaga ega bo'ladi. Strukturasi sistema - butunlik yo'q. Biroq bu struktura albatta butunlik hosil qiladi, butunlik bilan birga yashaydi, sistemaga ega bo'ladi, degani emas. Struktura to'la bo'lmagan butunlikda ham, aniqrog'i, uning bir qismida ham mavjud bo'ladi. Chunki struktura sistemaning ichki tuzilishi, uni hosil qiluvchi ichki aloqadorlik, tobelik, qismlarning bir-biri va butunlik bilan o'zaro bog'liq va shartlangan munosabati, sistemaning mavjud bo'lish, yashash sharti. Sistemaning bo'lishi uchun ana shu struktura – shartlangan, bir-birini taqozo qiluvchi aloqa, munosabat bo'lishi, yana ham aniqrog'i, shunday munosabat orqali bog'langan tuzilish, tarkib bo'lishi shart. Shu sababli struktura ana shu butunlikning u yoki bu qismi, bo'lagi uchun ham xos. Bu qism, bo'lak butunlik bo'lmasligi mumkin, lekin butunlikning bo'lagi strukturasi, ichki tuzilishsiz, uning ta'siri, ishtirokisiz mavjud bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, strukturasi butunlik yo'q, chunki "sistema o'zaro bog'langan va shartlangan munosabatda bo'lgan elementlarning yangi sifat, mazmun-mohiyat kasb etgan dialektik birligi, yangi butunlik". Ushbu butunlik strukturali ekan, uning xohlagan qismi strukturadan holi, undan tashqarida bo'lmaydi. Demak, sistema va struktura bir-birining bo'lishini taqozo qilsa-da, struktura butunliksiz ham yashash, mavjud bo'lish imkoniyatiga ega. Shu sabab sistema, butunlik strukturasi emas, ammo struktura hamma vaqt ham butunlik hosil qilavermaydi, faqat butunlik bilan birga mavjud bo'lmaydi, faqat shu holdagina namoyon bo'lmaydi. Struktura butunning qismi bilan ham yashaydi, qism ham strukturali bo'ladi, zero, qism ham o'zaro bog'liq tarkibli, ichki tuzilishlidir. Ichki tuzilishga ega bo'lmagan narsa yo'q, ammo barcha narsalar ham butunlik emas, u butunning qismi, bo'lagi, parchasi bo'lishi ham bemalol mumkin, ammo u strukturasi bo'la olmaydi. Til sistemasi ham uni tashkil qilgan sathlarning o'zaro bog'liq va shartlangan munosabatidan yuzaga kelgan ichki tuzilishli butunlik, lekin uning misol uchun leksik sathining o'zi yaxlit til sistemasini tashkil qilmaydi,

ammo u, hech shubhasiz, ichki tuzilishga ega. Unda son-sanoqsiz turli xil lug'aviy-leksik paradigmalar mavjud. Uning lug'at tarkibi ana shu paradigmalardan iborat. Lug'at tarkibi deganimizning o'zi leksik sathning strukturali ekanligidan dalolat berib turibdi. Ammo bu – leksik sath til sistemasi degani emas, til sistemasi undan boshqa va ikki xil yashash formasi, mavjudlik holatidagi sathlarni ham taqozo qiladi va ana shu sathlarning o'zaro bog'liq, shartlangan munosabatiga asoslangan dialektik birligidan hosil bo'ladigan butunlikdir.

#### Adabiyotlar:

1. Туйчиева, З. Х. (2022). ПРОЯВЛЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ МОТИВОВ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(4), 244-248.
2. Tuychieva, Z. (2019). PRINCIPLES OF DIFFERENTIATING OF GENDERS IN UZBEK ANTHROPOLOGY. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(1), 75-82.
3. Khamrokulovna, T. Z. (2018). Literature revealing the truth of life. *Проблемы педагогике*, (7 (39)), 77-78.
4. Khamrokulovna, T. Z. (2021). ISSUES RELATED TO SOSIOLINGVISTIK ANALYSIS (ABOUT Qul-, -qul-COMPONENT NAMES). In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 1, pp. 48-50).
5. Tuychieva, Z. K. (2018). LITERATURE REVEALING THE TRUTH OF LIFE. *Проблемы педагогике*, (7), 77-78.
6. Yerjanova, S. B., & To'ychiyeva, Z. H. L. (2024). MAHMUD KOSHG 'ARIYNING "DEVONU LUG 'OTIT TURK" ASARIDA SO 'ZLARNI KO 'CHMA MA'NODA QO 'LLASH. *Philological research: language, literature, education*, 4(4), 7-12.
7. Toychiyeva, Z. (2024). RELATION OF MORPHEMA TO LEXEMA. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-7.
8. Тураева, Д. Н., Саймуратова, И. Т., & Туйчиева, З. Х. (2024). ТВОРЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС И ОБРАЗЫ. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(1-1), 198-202.
9. Khamrokulovna, T. Z. (2022). Literature is a source that reveals the truth of life.
10. Туйчиева, З. Х. (2015). Проявление научно-исследовательских мотивов студентов в процессе обучения психолого-педагогических наук. *Austrian Journal of Humanities and Social Sciences*, 1(3-4), 89-91.
11. Khamrokulovna, T. Z. (2022). On the morphological structure of the word in the Uzbek language.
12. Jumanazar, A. (2017). History of Bukhara education system. *Tashkent: Akademyashr*, 592.
13. Jumanazar, A., & Lutfiniso, D. (2022). Inguistic Unity in Uzbek Linguistics Some Comments about the form. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 688-692.
14. ABDULLAYEV, J. HOZIRGI O 'ZBEK TILINI O 'QITISHDAGI BIR MUAMMOLI HOLAT VA UNING YECHIMI XUSUSIDA. *Я ПРЕПОДАВАНИЕ*, 6.